

**MAKTABLARDA OT SO'Z TURKUMINI O'QITISH  
METODIKASI**

*ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

***Yusupova Zebiniso, Rajabboyeva Gulsevar***

+998908956920

*yusupovazebiniso32@gmail.com*

***Ilmiy rahbar: Muxtorova Shahnoza***

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada ot so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot beriladi, ya'ni turdosh otlar, atoqli otlar, kichraytirish-erkalash shakllari, otlarning tuzilishiga ko'ra turlari misollar yordamida batafsil yoritib beriladi hamda uni o'quvchilarga tushuntirishda qaysi metodlardan foydalanishimiz aytib o'tiladi.*

***Abstract:*** *This article provides general information about the noun word class, namely, common nouns, proper nouns, diminutive-affectionate forms, types of nouns according to their structure, is explained in detail with examples, and the methods we use to explain it to students are explained.*

***Kalit so'z:*** *shaxs oti, narsa oti, o'rin-joy oti, faoliyat-jarayon oti, atoqli otlar.*

Ot so'z turkumi mavzusi maktablarda ko'p bora tilga olinadigan mavzulardan biridir. Boisi bu so'z turkumi asosiy nutq jarayonida foydalaniladigan va faol qo'llanadigan so'zlarni qamrab oladi. Maktablarda boshlang'ich hamda yuqori sinflardan bir necha bosqichlarda o'qitiladi. Uni tushuntirishda turli metodlardan foydalanish dars samarasini oshirib, mavzuning tushunarlik darajasini oshiradi. Dastlab ot noma ekanligi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib kim?, nima?, qayer? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar ot so'z turkumi deyiladi. Qayer? so'rog'i otlar va nomlarga beriladi. Nima? so'rog'i narsa-buyum va voqea-hodisaga beriladi.

Shaxs oti kim? so'rog'iga javob bo'lib shaxslarning yashash joyi, mansab

unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladi. Masalan, kasbkoriga nisbatan-oshpaz, ijtimoiy holatiga nisbatan-eshon, qarindoshlik darajasiga-tog'a, amma, xola va hokazolar. So'zning asosiga qo'shib atash ma'nosini o'zgartiradigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi. Masalan, ishchi, ish asos, -chi qo'shimcha. Asosga qo'shib so'zning atash ma'nosini o'zgartirmaydigan qo'shimchalar hisoblanadi. Masalan, bolalar, bola asos, -lar qo'shimcha.

Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar:

-chi-ishchi, -kor-paxtakor, -dosh-sinfdosh, -boz-dorboz, -bon-bog'bon, -soz-soatsoz, -gar-zargar, -shunos-tilshunos-vchi, bu qo'shimcha i unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda in unlisi u harfiga aylanadi. Agar so'zning asosi a harfi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda o harfiga almashadi. Bunday hodisa tovush almashish hodisasi deyiladi. Masalan, o'qi+vchi=o'quvchi, sayla+vchi=saylovchi.

-lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shib shaxsning hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlar qo'shilgan -lik qo'shimchasi atoqli o'zni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi. Masalan, Samarqand+lik=Samarqandlik, Amerika+lik=amerikalik.

Narsa oti-nima? so'rog'iga javob bo'lib, jonli va jonsiz narsalarni bildiradi.

Narsa otini yasovchi qo'shimchalar:

-gich-suzgich, -qich-qisqich, -kich-ko'rsatkich, -g'ich-yelpig'ich, -gi-supurgi, -ki-turtki, -qi-sanchqi, -k-elak, -q-taroq, -oq-o'roq, -indi-suprindi, -ma-suzma, -don-guldon, -qi qo'shimchasi A bilan tugagan asosga qo'shilganda a harfi o harfiga aylanadi. Masalan, tara+q=taroq, boya+q=bo'yoq tovush almashishiga uchraydi. Narsa oti yasovchi qo'shimchalarning boshqa so'z turkumlari bilan sinonimligi:

-ma-tugma-ot yasovchi qo'shimcha, qaynatma-sifat yasovchi qo'shimcha, kelma-fe'lning bo'lishsizlik shakli.

-don-guldon-ot so'z turkumi, bilimdon-sifat so'z turkumi

-qich-tutqich-ot so'z turkumi, yirtqich-sifat so'z turkumi.

-oq-o'roq-ot so'z turkumi, qo'rqoq-sitat so'z turkumi

-gi-supurgi-ot so'z turkumi, kuzgi-sifat so'z turkumi

-g'ich-o'chirg'ich-ot so'z turkumi, yulg'ich-sifat so'z turkumi

-k-elak-ot so'z turkumi, bordik-shaxs-son, chirik-sifat so'z turkumi

O'rin-joy otlari quyidagi qo'shimchalar orqali yasaladi:

-zor-gulzor, -iston-o'zbekiston, -loq-o'tloq, -ma-bostirma, -goh-o'yingoh, -xona-issiqxona, -lik-tepalik...

Faoliyat-jarayon oti-shaxs va narsaning faoliyat-jarayonini bildiruvchi otlardir. Faoliyat-jarayon oti quyidagi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi:

-lik-shafyorlik, -chilik-dehqonchilik, -garchilik-loygarchilik, -im-terim, -(i)q-chopiq, -(i)k-ko'rik, -v-uv-o'quv, -im qo'shimchasi bir bo'g'inli va tarkibida u unlisi mavjud bo'lgan so'zga qo'shilganda qo'shimcha tarkibida "i" harfi "u" harfiga almashadi. Masalan, un+im=unum tovush almashish hodisasi yuz bergan. -lik qo'shimchasi mavhum otda harakat, ya'ni faoliyat bo'lmaydi. Faoliyat-jarayon oti esa insonning harakati bo'ladi.

Biror shaxs, narsa va joyga atab qo'yilgan nomlar atoqli ot deyiladi: shaxs nomi, narsa nomi, o'rin joy nomi.

Shaxs nomi-kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlardir. Masalan, Rajabboyeva Gulsevar Otabek qizi

Narsa nomi-biror-bir narsalarga aynan atab qo'yilgan nomlardir. Masalan Ziyrak bu itlarga atab qo'yilgan nomdir.

O'rin-joy nomi-ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlardir. Masalan, Samarqand, Kattaqo'rg'on va hakazolar.

Otlarning-cha-choq,-chak,-aloq qo'shimchalari kichraytirish shakli hisoblanadi, -gina,-kina,-qina-jon,-xon,-oy,-boy qo'shimchalarini olgan shakl erkalash shakli hisoblanadi. Kichraytirish-erkalash qo'shimchalari subektiv baho ifodalovchi qo'shimchalar deb ataladi. Ular ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llana olganligi sababli shunday ataladi. Masalan, uycha-ijobiy Salimcha-salbiy ma'noda keladi. Bunday qo'shimchali so'zlar ko'proq so'zlashuv, badiiy, publisistik ulublarda qo'llanadi. Ilmiy va rasmiy uslublarda nafaoldir.

Otlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma juft, takror otlarga bo'linadi. Sodda otlar bir asosdan iborat bo'lgan otlardir. Sodda otlar sodda tub va sodda yasama otlarga bo'linadi. Sodda tub otlar-bir asosdan iborat bo'lib, tarkibida yasovchi qo'shimchalari bo'lmagan otlar. Sodda yasama otlar-bir asosdan iborat bo'lib, tarkibida yasovchi qo'shimcha mavjud bo'lgan. Qo'shma otlar-ikki va undan ortiq asosning qo'shilishidan hosil bo'lgan otlar. Ot+ot-qo'ziqorin, sifat+ot-qizilishton, ot+fe'l-echkiemar, son+fe'l-beshotar, ot+sifat-oshko'k, fe'l+fe'l-iskabtopar, fel+ot savacho'p, son +ot=mingoyoq.

Juft otlar-bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'nodagi asoslardan tarkib topgan otlardir. Juft otlar chiziqcha bilan yoziladi. Masalan, karnay-surnay, childirma-nog'ora. Gapda bitta gap bo'lagi qilib tahlil qilinadi.

Takror otlar-ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takrordan tarkib topgan otlardir. Takror otlar chiziqcha bilan yoziladi va bitta gap bo'lagi qilib tahlil qilinadi. Masalan, non-pon, tuz-puz, choy-poy. Ravishga ko'chgan otlar-es-es qator-qator takror-takror, qop-qop, yashil-yashil. Sifatga ko'chgan otlar-yo'l-yo'l, tanga-tanga, baria-barra.

O'quvchilarga ot so'z turkumi hamda u bilan bog'liq mavzularni quyidagi metodlar orqali tushuntirsa, mavzu samarali o'zlashtiriladi: Otlar ma'no jihatdan ikki guruhga bo'linadi: 1. Turdosh otlar 2. Atoqli otlar. Bu mavzuni o'tishda klaster metodi qo'l keladi.

Klaster (tarmoqlash) metodi. Doskaga "OT" yozilib, uning atrofida turlari yoziladi: shaxs otlari, joy nomlari, predmet nomlari. Afzalligi: mavzu tizimli ko'rinishda o'zlashtiriladi.

Insert metodi: matn bilan ishlashda bilaman, yangi ma'lumot, tushunmadim kabi bosqichlarda olib boriladi. Dars so'ngida o'tkazilsa maqsadga muvofiq. Afzalligi o'quvchi o'z bilimini nazorat qiladi.

Aqliy hujum (Brainstorming) "Otlarga misollar ayting" deb o'quvchilardan tezkor javoblar olinadi. Bunda o'quvchilar boshqa so'z turukimidan otni alohidalaydi. Afzalligi fikrlash tezligi oshadi.

"Sehrli binokl" o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi va o'quvchilar aniq va mavhum

otlar haqida suhbatlashganda o'qituvchi ularga mavhum otlarni ko'rib, ushlab yoki o'lchab bo'lmasligi haqida gapiradi. Shunda o'quvchilar shu so'zlarni sehrli binoklda ko'rsak qani edi, deyishadi. O'qituvchi ularga: “Marhamat, qani kim sehrli binokl orqali qancha mavhum otni ko'rар ekan?”, -deydi. Mavhum otlardan eng ko'p yozgan, ya'ni uni sehrli binokl orqali bilib olgan o'quvchilar o'yin g'olibi bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilar “Sehrli qalpoqcha”, ”Sehrli tayoqcha” kabi ertaklarga qiziqqandek “Sehrli binokl”ga ham qiziqish bilan qaraydilar va mavhum otlardan namunalar yozadilar.

“Bir so'zdan ikki ism” o'yini. Sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va ularga gulning nomlari, mehnat qurollari hamda hayvonlarning nomlarini yozish va shular atab qo'yilgan kishi ismlarini yozish topshiriladi. O'quvchilar yozadilar.

1. rayhon-Rayhon, lola-Lola,
2. bolta-Boltaboy, tesha-Teshaboy,
3. bo'ri-Bo'riboy, olmaxon-Olmaxon, chinnigul-Chinnigul, nilufar-Nilufar, o'roq-O'roqboy, qo'zi-Qo'ziboy, tulki-Tulkiboy.

Shu so'zlarning qaysi biri bosh harf bilan va qaysi biri kichik harf bilan yozilishiga e'tibor berib, uni to'g'ri yozgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi g'olib bo'ladi.

O'rin-joy otlari-qayer? so'rog'iga javob bo'lib o'rin joy ma'nosini bildiruvchi otlardir. Bunday otlar o'rin-joy ma'nosi bilan birga narsalik ma'nosini ham bildiradi. Shuning uchun matnda kelishiga qarab qayer? bilan birga nima? so'rog'ini ham oladi. Masalan, 1. Tog'da toshloq ko'p. Bu yerda "toshloq" so'ziga nima? deb so'roq beramiz. 2. Ot toshloqdan borardi. Ikkinchi gapdagi "toshloq" so'ziga esa qayer? deb so'roq beramiz. Bu mavzuni o'qitishda “O'zbekistonning geografik joylashishi”, “Shaharlar haqida o'ylarim” kabi matnlardan atoqli va turdosh otlarni alohida ajratib yozishga oid o'yinlarni ham tashkil etish mumkin.

“Qo'yilgan savollarga to'g'ri javob top” o'yini. O'zbekiston qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh? O'zbekistondagi qaysi shaharlarning nomlarini bilasiz? O'zbekistonning qaysi shaharlari tarixiy obidalarga boy? O'zbekistonda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi? O'zbekistonning qaysi mevalari olamga

mashhur? kabi savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar bellashuv g'olibi bo'ladi.

“Qaysi, qanday yoziladi?” o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi ko'chma doskadagi gapni o'quvchilarga o'qib beradi va qaysi gapda qo'shtirnoq qo'llanishini so'raydi, o'quvchilarga shu gaplarni imlo qoidasiga asosan yozish topshiriladi. Tavsiya etiladigan gaplar:

1. Tohir va Zuhra ertagini o'qib chiqdim. Tohir va Zuhra egizaklarga qo'yiladigan ism ekanligini bilib oldim.

2. Dilorom kompyuterda test topshirmoqda. Dilorom magazinidan bayram sovg'asini xarid qilishingiz mumkin.

3. Mehriqiyo she'r o'qiganda hamma hayratda qoldi. Mehriqiyo kichik korxonasi xonadonlarimizga gaz quvurlarini keltirib o'rnatmoqda.

Ushbu gaplardagi atoqli otlarga qo'shtirnoqni to'g'ri qo'yib, imlosini izohlagan o'quvchi o'ym g'olibi sanaladi. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar o'zlari yashab turgan mintaqadagi joy nomlarini izohlashga doir o'yinlardan ham foydalanishlari mumkin.

“So'zni o'z uyasiga joylashtir” o'yini, O'qituvchi o'quvchilarga shaxs otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy nomlari kabilarni ifodalovchi ishlovchi, o'quvchi, o'qituvchi, maktabdosh, temirchilik, o'tloq, qumloq, oshxona, ishxona kabi so'zlarni aytib turadi. O'quvchilar bu so'zlarning shaxs otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy nomlari kabi uyalarga ajratib yozadilar. So'zlarni o'z uyasiga to'g'ri joylashtirgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'yin g'olibi sanaladi.

Berilgan qo'shimchalar yordamida (masalan, -shunos, -chilik, dosh va h.k.) kim ko'p so'z hosil qiladi. O'quvchilarga bir yoki ikki daqiqa vaqt beriladi-da, berilgan qo'shimcha yordamida so'zlar hosil qilish topshiriladi. Belgilangan vaqtda belgilangan miqdorda so'z hosil qila olgan o'quvchilar o'yin g'olibi hisoblanadi.

“O'rmonda va hovlida” o'yini. O'qituvchi o'yin haqida o'quvchilarga izoh beradi: o'rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari nomlarini toping, hamda ularni ikki ustunga alohida ajratib yozib chiqing. O'quvchilar yozadilar: o'rmonda bo'ri tulki sher ayiq, hovlida qo'y ot sigir echki.

Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtda ko'p hayvon nomini yozsa, o'yin g'olibi sanaladi.

“Otlarda, son” mavzusini o‘rganishda lar qo'shimchasi bilan kelgan otlarni ma'no guruhlariga ajratib, shu qo‘shimcha yordamida hosil bo'lgan so'zlarning ma'nosini sharhlashga oid o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb bilamiz[3;192-195].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduraimov Sh. va boshq. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2025. -224 b.
2. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent-2022.
3. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernarazova, A.Bobomurodova, N.Alafutdinova, V.Karimjonova , Toshkent-2012 192-195 betlar
4. F.E.Ibragimova, Toshkent,2024
5. F.T.Shodiyev, Samarqand,2019
6. Nargiza Erkaboyeva, Toshkent,2019
7. Ra'no Sayfullayeva, Toshkent,2019